

“AHMAD YASSAVIY” ROMANIDA IBORA VA MAQOLLARNING QO‘LLANILISHI

Abdujabborova Shohsanam Ibrohim qizi

ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

shohsanam.0705@gmail.com

O‘qituvchi: F.f.b.f.d. (PhD), dots.v.b. Rasulova S.S.

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida ibora va maqollarning qo‘llanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan barqaror iboralar, maqollar hamda hikmatli so‘zlarning badiiy nutqdagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, ibora va maqollarning qahramon xarakterini ochish, voqea-hodisalarni obrazli ifodalash hamda asarning badiiy-estetik ta’sirini kuchaytirishdagi vazifasi misollar asosida yoritiladi.

KALIT SO‘Z: Ahmad Yassaviy romani, ibora, xalq og‘zaki ijodi, obrazlilik.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируются особенности употребления фразеологизмов и пословиц в романе Sa’dulla Siyoyev «Ахмад Яссавий». В произведении рассматривается роль устойчивых выражений, пословиц и мудрых изречений, характерных для устного народного творчества, в художественной речи. Также на основе примеров раскрывается значение фразеологизмов и пословиц в раскрытии характера персонажей, образном изображении событий и усилении художественно-эстетического воздействия произведения.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: роман «Ахмад Яссавий», фразеологизм, устное народное творчество, образность.

ABSTRACT: This article analyzes the features of the use of phraseological units and proverbs in the novel “Ahmad Yassaviy” by Sa’dulla Siyoyev. The study highlights the role of stable expressions, proverbs, and wise sayings characteristic of folk oral tradition in the artistic language of the work. It also explains, through examples, the function of phraseological units and proverbs in revealing the characters’ traits, figuratively depicting events, and strengthening the artistic and aesthetic impact of the work.

KEYWORDS: Ahmad Yassaviy novel, phraseological unit, folklore, imagery.

KIRISH. O‘zbek badiiy adabiyotida xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan foydalanish muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maqol va iboralar yozuvchi nutqining ta’sirchanligini oshiradi, qahramonlarning ruhiy holatini ochib beradi hamda asarga milliy ruh bag‘ishlaydi. O‘zbek adibi Sa’dulla Siyoyev qalamiga mansub “Ahmad Yassaviy” romanida ham xalqona iboralar, maqollar va hikmatli so‘zlardan keng foydalanilgan.

Mazkur roman tasavvuf olamining buyuk namoyandasi Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyatini badiiy talqin qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xalq og‘zaki ijodi unsurlari muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi[1]. Adabiyotshunoslar fikriga ko‘ra, badiiy asarda xalq tiliga xos iboralar qo‘llanishi obrazlarning tabiiyligini kuchaytiradi hamda asarning estetik ta’sirini oshiradi[3]. Asarni lingvistik tahlil qilish jarayonida undagi frazeologik birliklar va maqollar statistik jihatdan ham o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, romanda takrorlarsiz frazeologik birliklar soni taxminan 260 tani tashkil etadi. Shuningdek, asarda qo‘llangan maqollar soni nisbatan kam bo‘lib, ularning umumiy miqdori 45 ta atrofida ekanligi aniqlandi. Bu esa muallif asarda ko‘proq individual obrazli ifodalar (frazeologizmlar)dan foydalanganini ko‘rsatadi. Quyida romanda keltirilgan ibora hamda maqollardan misollar keltirilgan:

№	Romanda qo‘llangan iboralar	Romanda qo‘llangan maqollar
1.	Ha, balo-qazo kelsa, Qoratovdan to‘shi bilan to‘sib turardi.	Tuyadek bo‘y berguncha, tuymadek aql bersin
2.	Xayol otiga minib vujud shahrini kezadi, yetti iqlimda, to‘qqiz falakda sayr etadi.	Bitar ishning boshig‘a, yaxshi kelar qoshig‘a
3.	Kun nayza bo‘yi ko‘tarildi	El ming qo‘ychiga bir boshchi (turkiy naql)
4.	Shayx kiprik qoqmay, mo‘ltirab turgan, yuzlab qorako‘zlarga boqib, bir lahza hayolga qoldi	Olishga kelganda - bismillo, berishga kelganda - astafirillo
5.	Ayol kishining ko‘z yoshini ko‘rsa, ko‘ngli buziladi	Burgaga achchiq qilib ko‘rpa kuydiribdir
6.	Haqiqatning eshigini ochdim	Adashsang - ko‘pchilik bilan adash
7.	Men ham sizga qarab hayrat barmog‘imni tishlab o‘tiribman	Egilgan boshni qilich kesmas
8.	Bir musulmon o‘rtanib qora kosovdek bo‘lib qolibdi	Nonning butuni, kaltakning yarmi yaxshi
9.	Yigirma yetti yoshimda tirik murda bo‘lib yuribman	Eshak mingan yo‘lda ko‘p, yo‘l topmagan yo‘lda ko‘p
10.	Hazratning yuki bor deganlari rostga o‘xshaydi	Ursang eti qotadi, ursang beti qotadi

Romanda ko‘plab frazeologik birliklar qahramonlarning ruhiy kechinmalarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, asarda quyidagi fikr uchraydi: “Qutbiddin boshini egib sukunatga berildi [4]”. Bu yerda “boshini egib” iborasi qahramonning kamtarligi, ichki iztirobi va mulohaza holatini ifodalaydi. Oddiy harakat tasviri orqali qahramonning ruhiy kechinmalari ochib berilgan. Shuningdek, romanda yana shunday iboralar uchraydi: “Xon g‘azab otiga mingan ko‘rinadir [4]”. Bu ibora o‘zbek tilidagi mashhur frazeologizm bo‘lib, “qattiq g‘azablangan” degan ma‘noni bildiradi. Yozuvchi bu iborani ishlatish orqali hukmdorning keskin kayfiyatini jonli tarzda tasvirlaydi [5]. Yana bir misol: “Zoviyaning tor xujrasidek bu zindon endi Qutbiddin uchun hayolot maskaniga aylandi [4]”. Bu jumlada ham obrazli ifoda mavjud bo‘lib, qahramonning ruhiy olami va tasavvufiy tafakkuri aks ettirilgan. Zindonning “xayolot maskani”ga aylanishi obrazli tasvir orqali berilgan.

Romanda xalq hikmatlariga yaqin bo‘lgan fikrlar ham uchraydi. Masalan: “Tug‘ilmoq bor, o‘lmoq bor [4]”. Mazkur hikmat xalq orasida keng tarqalgan falsafiy qarashni ifodalaydi. Unda inson hayotining vaqtinchaligi va dunyoning foniyligi haqida fikr yuritiladi. Tasavvuf falsafasida ham bu g‘oya muhim o‘rin tutadi. Yana bir hikmatli fikr romanda quyidagicha ifodalanadi: “Har bir kimsa o‘zini yaxshi xulqlar bilan ziynatlasa, jamiki insoniyat soflanadi [4]”. Bu fikr ham xalqona hikmat ruhiga ega bo‘lib, axloqiy poklik va komillik g‘oyasini targ‘ib qiladi. Tasavvuf ta‘limotida inson o‘z nafsini poklash orqali ma‘naviy kamolotga erishadi. Roman tasavvuf ruhida yozilgani sababli undagi hikmatli iboralar insonning ruhiy poklanishi, sabr, tavoze kabi tushunchalarni yoritadi [2].

Asarda xalq og‘zaki ijodi unsurlaridan, xususan, maqollardan ham unumli foydalanilgan. Maqollar asosan qahramonlar nutqida, pand-nasihat va hayotiy xulosalarni ifodalashda qo‘llanib, badiiy matnning milliy ruhini kuchaytiradi. Jumladan, asarda “Birovga o‘lim tilaguncha, o‘zingga umr tila” kabi maqol orqali insonni yomon niyatlardan qaytarish g‘oyasi ilgari suriladi [1]. Shuningdek, “Ering

– piring [4]” mazmunidagi ibora orqali oilaviy munosabatlar va an’anaviy qadriyatlar ifodalanadi [5]. Yana “Ikki gaz yer hamma uchun yetarli” mazmunidagi hikmat esa insonning bu dunyodagi o’rni va umrning o’tkinchiligi haqida falsafiy xulosa beradi.

Bundan tashqari, asarda uchraydigan maqollar qahramonlarning dunyoqarashi, ijtimoiy muhit va xalqona tafakkurini ochib berishga xizmat qiladi. Ular nafaqat nutqni jonlantiradi, balki asarning tarbiyaviy ahamiyatini ham oshiradi [2].

Xulosa qilib aytganda, Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida maqol va iboralardan keng foydalanilgan. Bu birliklar asarning badiiyligini oshirib, qahramonlarning ruhiy holatini yanada ta’sirchan qilib tasvirlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, xalq og’zaki ijodiga xos hikmatli fikrlar roman mazmunini boyitib, tasavvufiy g’oyalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Shunday qilib, romandagi maqol va iboralar nafaqat til bezagi, balki asarning g’oyaviy-badiiy mazmunini ochib beruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Haqqul I. Tasavvuf va badiiy tafakkur. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
2. Siyoyev S. Ahmad Yassaviy. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
4. Sharafiddinov O. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
5. Yassaviy A. Hikmatlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1991.